

O'zbek va ingliz tillaridagi leksik interferensiya

Ismailova Barno Yuldashbayevna

o'qituvchi, UrDU

Annotatsiya: Maqolada o'zbek va ingliz tili leksik interferensiyani yoritish nazarda tutilgan bo'lib, farqlari ikki tilda ham misollar bilan yoritib berilgan.

Annotation: The article is dedicated to be analyzed uzbek and English lexical interference. The material is compared with the differences of both languages interference.

Kalit so'zlar: sistema, interferensiya, fonetik, leksik, stilistik, .

Key words. system, interference, phonetic, lexical, stylistic, .

Bugungi kunda lisoniy interferensiya o'ziga xos xususiyatlari va bu haqida til soxibi tafakkurida turli tizimdagi tillarning harakatlanish mexanizmlari tug'risida olimlar tomonidan xar xil fikrlar yuritilishi sababli ushbu xodisa tilshunoslikda dolzarb muomma xisoblanadi.

Bu xodisaning til soxibining kundalik paydo bo'lishi haqida fikrlar turlichadir, ammo interferensiyani tillar munasabatidagi salbiy ta'sirlar haqida tushuncha ekanligi keng tarqalgan.

Interferensiya til sistemasining hamma qismlarida ro'y beradi, ya'ni tilning xar bir satxida uning fonetik, leksik, grammatik va stilistik xususiyatlariga boglik bo'ladi, shu tufayli u fonetik interferensiya, leksik interferensiya va boshka turlariga

Ismailova Barno Yuldashbayevna

bo'linadi.

U. Vaynrayx fikricha, interferensiya "ikki tilning o'zaro aloqaga kirishuv jarayonidagi til normalaridan chekinishi"dir. [Vaynrayh ,1979, 22-b]

Nutq jarayonida odatda interferensiyaning uch turi kuzatiladi:

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

- 1) fonetik interferensiya - boshqa tilga xos tovushning ikkinchi til tovushiga moslashishi;
- 2) grammatik interferensiya - bir til morfologik sistemasining ikkinchi til morfologik sistemasiga ta'siri;
- 3) leksik interferensiya - bir til leksik sistemasining ikkinchi bir til leksik sistemasiga ta'sir etishi.

Leksik interferensiya tushunchasi ko'pchilik tilshunos olimlar tomonidan (U.K.Yusupov, M.D.Djusupov) tillararo munosabatlar paytlarida ularda mavjud bo'lgan leksik-semantik birliklarning ishlatilish xamda ma'noviy va strukturaviy tomonlardan bir biriga ta'sir etishi nazarda tutiladi.

Uzbek talabalarining ingliz tilidagi nutqida leksik interferensiya ko'pincha polisemiya saxosida uchrashadi. Bu xolatda ba'zi inglizcha baynalmilal hamda ko'p ma'noli mavhum otlarning bir ma'nosi urniga boshqa ma'noda qo'llanish yuz beradi. Masalan: magazine so'zi ingliz tilida "jurnal" deb tarjima qilinadi lekin o'zbek studentlari aniq tarjimasini bilmaganligi uchun va bu so'z o'zbekchada do'kon manosida tushunadi va do'kon deb tarjima qiladi. Tillarning lug'aviy tarkibidagi birliklar orasida sinonimlik, omonimlik va paronimlik o'xshagan munosabatlar mavjuddir. Ularga ingliz tili mavxum otlaridan quyidagi leksemalarni misol qilsa bo'ladi: **lift**, **credit**, **book**, **artist** ya'ni They are lifting potatoes. Ular kartoshkani kavlab olishyaptilar gapini Ular kartoshkani liftida chiqarishyapti deb tarjima qiladilar. I booked the room Men xona buritirgandim gapini Men kitob xonada deb tarjima qilishadi. Xuddi shunday misollarga Leonardo is my favourite artist. Leonardo mening sevimli rassomim gapini, Leonardo mening sevimli aktorim deb tarjima qilishadi.

Ushbu so'zlarining orasida o'zbek talabarlari uchun ko'p paytlarda omonim va paronimlar munosabatlaridagi leksemalarni ma'noviy tomondan ajrata olmaslik ko'p uchrashadi, masalan : prise-ko'tarmoq, prize-sovrin, price-narx, present-sovg'a, present-hozir, present-mo'ljalga olmoq

Ma'lumki, o'zbek tiliga predloglar xos emas, shuning uchun ingliz tilining predloglari o'zbek tiliga kelishik affikslari yoki yordamchi so'zlar (posleloglar) orqali beriladi. Ingliz tili predloglari gap yoki birikmada so'z shaklining oldida tursa, o'zbek tili posleloglari so'z shakldan so'ng joylashadi. Bundan boshqa

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

taffavut shundan iboratki, ingliz tili predloglari fe'llar, otlar bilan so'z birikmasi tuzganida fe'llarga biriktirilgan bo'ladi, o'zbek tili posleloglariga bunday emas. Yuqorida o'zbek va ingliz tillari orasidagi ko'rsatilgan farqlar asosan ingliz tili mavxum otlarining grammatik ma'nolarini ajrata olishida jiddiy qiyinchiliklar xosil qiladi. Talabalarning ingliz predloglarini qo'llanilishidagi xatolar quyidagicha:

- lozim bo'lgan predlogni tashlab ketish (ishlatmaslik), **masalan: with pleasure, to pleasure of**

- kerakli predlogni qo'llamaslik, **масалан: ability to hear, to keep a promise**

- bir predlog o'rniga boshqa predlog ishlatish, **masalan: power to attract, power of technology**

Interferensiyaga sof lisoniy yondashilganda ko'nikma va malakani ko'chirib o'tish emas, balki ularning oqibati, ya'ni yo'l qo'yilgan nutq xolatlari nazarda tutiladi, shuning uchun lisoniy interferensiyani o'quvchining ona tili va o'rganilayotgan til xodisalarini noto'g'ri tenglashi sababli bilingvning ikki til soxibining ikkinchi tildagi nutqidagi normadan chetlashish vaziyatlari deb bilsa bo'ladi [Karlinskiy , 1972, 9-16-b].

Xulosa qilib aytganda, interferensiya bilingvning birlamchi (ona) tilida shakllantirgan nutq faoliyati bo'yicha malakalarini xali to'liq o'zlashtirilmagan ikkilamchi (boshqa) tildagi nutqida qo'llashi bo'lib, shu shaxsning nutqida boshqa til meyorlaridan ona tili ta'sirida chetlashishidir; bu xolatda lisoniy ta'sir birlamchi (ona) tildan ikkinchi (boshqa) tilga yo'naltiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Вайнрайх У. Языковые контакты. Состояние и проблемы исследования. Киев ,1979, -264 б.
2. Джусупов М. Звуковые системы русского и казахского языков. Слог. Интерференция. Обучение произношению. –Т.: Фан, 1991. -239 с.
3. Карлинский А.Е. Экспериментальное изучение лексической интерференции в прикладных целях // -Алма-Ата, 1989, с.60.
4. www.academia.edu
5. www.bbcnews.com

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

